

Maktabgacha yoshdagi bolalarda badiiy-ijodiy kompetensiyalarni shakllantirishda Abdulhamid Cho'lponning asarlari ahamiyati

Urganch davlat Pedagogika instituti o'qituvchisi: Axmedova Gulnoza

Urganch davlat Pedagogika instituti talabasi: Avezova Mastura

Annotatsiya: Maqolada Cho'lpon hayoti davomida bizga ko'pgina asarlarni meros qilib qoldirgan. Ularda maktabgacha yoshdagi bolalar ma'naviyatini shakllantirishga oid g'oyalar haqida so'z yuritiladi. Cho'lponni vatanparvarlik tuyg'ularini, vatan ozodligi, ta'lim-tarbiya jarayoniga qo'shgan xissasi haqida yosh avlod ongiga singdirish haqida ma'lumotlar bayon qilingan.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan so'ng adabiyot va san'atning boshqa sohalarida bo'lganidek, adabiyotshunoslik sohasida ham yangi davr boshlandi. Uzoq yillar davomida o'rganilishi taqiqlangan madaniy merosimizning qatag'on davri bilan bog'liq sahifalari qaytadan tiklanmoqda. Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lpon, Elbek singari yozuvchilarimizning asarlari xalqimizga qaytarilib, ularning hayoti va ijodi jiddiy ravishda o'rganildi va o'rganilishda davom etmoqda.

Turkistonda milliy uyg'onish va yoki jadidchilik harakatining o'rganila boshlaganiga qariyb yigirma yil bo'lishiga qaramay, jadidchilik namoyondalari va ularning ijodi bo'yicha talaygina ishlar amalga oshirildi. Bu harakat namoyondalarini o'rganishga bo'lgan qiziqish nafaqat O'zbekiston, Markaziy Osiyo, balki Germaniya, AQSH, Fransiya, Yaponiya, Turkiya kabi mamlakatlardagi olimlarning ham faol shug'ullanayotganligini alohida ta'kidlab o'tish lozim. Adabiyotimizda Cho'lpon singari millat masalasini, milliy g'urur, milliy ozodlik tuyg'ularini hech ham to'xtamasdan, hech tanaffuslarsiz ko'tarib chiqqan ijodkor yo'q. Cho'lpon butun umr, hayotini millatga tikkan va shu yo'lda yashab o'tgan ijodkor edi. Cho'lpon ham boshqa jadidchilar kabi ijodida ma'rifatchilikni kuylagan holda boshlagan edi. Uning "Qurboni jaholat", "Do'xtur Muhammadyor" asarlarida ham aynan ziyoli, o'qimishli kishilarning jaholat qurboni bo'lganliklari aks etgan. Cho'lpon o'zining ma'rifatparvar g'oyalarida jaholatning qanchalik daxshatli og'riq, tuzalmas kasallik ekanligini ko'rsatib o'tgan.

Adabiyotning millat hayotidagi o'rni va roli haqida o'n yetti yoshida maqola yoza olganligi ijodning, adabiyotning millat uchun naqadar kerakligi xususida ega bo'lganligidan dalolat beradi. Bu xususiyati kelgusi yosh avlod uchun o'rnak bo'lsa arziydigan ishdir. Shoir lirikasiga to'xtalganimizda, yuqorida aytib o'tganimizdek, ma'rifatparvarlik g'oyalari ochiq-oydin aks etib turganini sezamiz. Xalqni, millatni

qoloqlikdan olib chiqish, “malla”larga bo‘yin egmaslik tuyg‘ulari yo‘g‘rilgan birgina “Ko‘ngil” she‘rini olsak:

Tiriksan, o‘lmagansan,
Sen-da odam, sen-da insonsen,
Kishan kiyma,
Bo‘yin egma,
Ki, sen ham hur tug‘ilg‘ansan!

Bunday jasoratli hayqiriq, bunday millatni yuksaltirishga, ko‘nglini uyg‘otishga, chetdan kelgan har kimga ham bo‘yin egavermaslikka, “Sen ham odamsan, “malla”lardan hech kaming yo‘q” deya fikrni singdirishda Cho‘lpondek boshqa ijodkor bo‘lmagan. Insonning yuragidagi ajib hislarni uyg‘ota olgan va uni da‘vat eta olgan chaqiriqlari bilan ajralib turgan.

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, biz Cho‘lpon hayoti ijodiga nazar solar ekanmiz unda vatanimiz madhi, ma‘rifatparvarlik tuyg‘usi, millatni qoloqlikdan saqlash g‘oyalari haqida fikr yuritganlar. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ma‘naviy rivojlanishida Cho‘lpon asarlariga murojat qilishimiz va keng ommaga yanada ko‘proq targ‘ib qilishimiz zarur. Yoshlarga kimni avlodi ekanimiz haqida maktabgacha yoshda o‘rgatsak, kelajakda shu adiblarimizning avlodiga munosib shaxs bo‘lib yetishishlari uchun poydevor bo‘ladi dep xisoblaymiz.